

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

5111000- Musiqa ta'limi yo'nalishi

4-kurs talabasi

Dadaboyeva Omina Baxtiyorovnaning

Bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Birinchii sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonlikni tarkib toptirish yo'llari”

Ilmiy rahbar:

D. NAMOZOVA.

QO'QON – 2012

MUNDARIJA:

Kirish

I BOB. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodini o'rgatishda davlat ta'lim standarti talablari.....

I.1. Musiqa savodi o'rgatishning boshlang'ich davri.....

I.II. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruziy talablar.....

II BOB. Musiqa savodini o'rgatilishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni.....

II.1.O'quvchilar musiqiy idrokini rivojlantirishda musiqiy savodxonlikning ahamiyati.....

II.2. 1-sinf o'quvchilarini musiqa darslarida musiqiy savodxonligini rivojlantirish vositalari.....

III. Prezidentimiz asarlarida ta'lim tarbiyaga bo'lgan e'tibor.....

Xulosa va tavsiyalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar.

Mavzu: Birinchi sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonlikni tarkib toptirish yo'llari.

Reja:

I BOB. Musiqa madaniyati darslarida musiqqa savodini o'rgatishda davlat ta'lim standarti talablari.

I.1. Musiqa savodi o'rgatishning boshlang'ich davri.

I.II. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruziy talablar.

II BOB. Musiqa savodini o'rgatishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni.

II.1. O'quvchilar musiqiy idrokini rivojlantirishda musiqiy savodxonlikning ahamiyati.

II.2. 1-sinf o'quvchilarini musiqqa darslarida musiqiy savodxonligini rivojlantirish vositalari.

III. Prezidentimiz asarlarida ta'lim tarbiyaga bo'lgan e'tibor

Xulosa va tavsiyalar.

Ilovalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Respublikamizning «Ta'lim to'g'risidavgi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori «Musiqqa madaniyati va san'at » fanining o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

«Musiqqa madaniyati va san'at» o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. «Musiqqa madaniyati va san'at» o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya. mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi.

Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari va bugungi zamonaviy musiqiy-faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bolib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslublari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar) asarlarining elementar asoslarini o'rgatishni me'yorlashtiradi. Musiqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqiy boyligini idrok eta oladigan madaniyatii inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafasati bilan o'rganishiari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Shuningdek, 'o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlajrini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining nufuzli durdona asarlari bilan tanishtiriladi.

«Musiqa madaniyati va san'at» o'quv fanining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkoriari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr bastakorlari va kompozitioiiar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblarini bilishni, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy

faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, o'zbek mu siqasida zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada-musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo'lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir q'atorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish. musiqiy tavsiflarni ifodalasrr imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik nialakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bolib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavozlik qilishga intiladi. O'zbek xalq qo'shiqlari,,o'zbek bastakorlari va kompozitorlari-qo'shiqlari, jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlaridan namunalar kuylaydila'r.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg uloti (tinglash. ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, beriigan mavzudagi asar ovrganiladi va lining xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiiiigi) haqida yangi tushunchalar j hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy: bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiiiigi, 1 xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar. an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaninig ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Demak, musiqa o'qituvchisiga shunday talablar qo'yilar ekan, o'quvchi yo'shlarga musiqa savodi orgatilishidagi muammo va yechimlarni tadqiq etish uchun bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini **“O'quvchi yoshlarga musiqiy savodxonlikni shakllantirish yo'llari”** deb belgiladik.

Tadqiqot maqsadi.

Musiqa insonga tez ta'sir etuvclii emosional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatini ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni xis eta oladigan, o"z kasbiga, Ona vataniga mehr qo'ygan bo'lisbi kerak. SHu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bolgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1 .O'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr muhabbatni oshirish.

2. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his - tuyg'ularini rivojlantirish.

3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni ahloqiy - estetik tarbiyalash

4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerar.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bogliq mavzular asosida sinov tajriba ishlari tashkil etib, xulosalar yozish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asosi.

O'zbekiston respublikasi prezidenti I.A.Karimovning nutqi, farmoishlari, asarlaridagi fikrlari, sharq mutafakkirlari, pedagogika sohasidagi buyuk namoyondalar fikrlariga tayangan xolda yozildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

Musiqa madaniyati darsining yetakchi faoliyati bo'lgan musiqa savodini o'rganish qismida zamonaviy pedagogik texnologiyaga yondoshgan holda amalga oshirildi.

Tadqiqot ob'ekti. Qo'qon shahar X.T.B.ga qarashli 13 umumta'lim maktabining 1 sinf o'quvchilari tanlandi.

Tadqiqot predmeti. Umumta'lim maktabi "Musiqa madaniyati" fani va xor to'garagi.

Ilmiy faraz. Musiqa madaniyati yil va choraklik mavzularini, musiqa savodiga berilgan mavzularni interfaol usullar bilan hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshirilsa bilim sifati va darajasi yuqoriga ko'tarilishi xolatlarini reja asosida amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu rejalarimizni amalga oshirsak ilmiy faraz ro'yobga keladi.

Bitiruv malakaviy ishining tajriba sinov ishlari xulosasi. Tajriba sinov ishlari 1 sinf o'quvchilari bilan olib borildi. Reja asosida 3 chorak mavzularini 4ta darsi interfaol uslublar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yondoshib tashkil etildi .

- tanlangan mavzu asosida sinov tajriba ishlari tashkil etilib,tajriba xulosalari yozildi.

Tadqiqot tuzilishi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, ikki paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodini o'rgatishda davlat ta'lim standarti talablari.

Respublikamizning «Ta'lim to'g'risidavgi Qomuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori «Musiqa madaniyati va san'at » fanining o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

«Musiqa madaniyati va san'at» o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga. mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. «Musiqa madaniyati va san'at» o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya. mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori mu'siqiy ta'limda ham davlat tja'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy

faoliyatlari va bugungi zamonaviy musiqiy-faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkaniol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bolib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar) asarlarining elementar asoslarini o'rgatishni me'yorlashtiradi. Musiqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqiy boyligini idrok eta oladigan madaniyatii inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafasati bilan o'rganishiari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Shuningdek, 'o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining nufuzli durdona asarlari bilan tanishtiriladi.

«Musiqa madaniyati va san'at» o'quv fanining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

I.1. Musiqa savodi o'rgatishning boshlang'ich davri.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkoriari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr bastakorlari va kompozitolar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblarini bilishni, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, o'zbek mu siqasida zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada-musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo'lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir q'atorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish. musiqiy tavsiflarni ifodalasrr imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik nialakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bolib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavozlik qilishgalntiladi. Ovzbek xalq qo'shiqlari, ,o'zbek bastakorlari va kompozitorlari-qo'shiqlari, jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari 'Jo'shiqlari. mahalliy musiqa uslublariga old folklor qo'shiqlaridan namunalar kuylaydila'r.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg uloti (tinglash. ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, beriigan mavzudagi asar ovrganiladi va lining xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiiiigi) haqida yangi tushunchalar j hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy: bilim,

tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, 1 xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar. an'analar, templar (suriat), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi.

Musiqa tinglash yakkanavozlik va jo'navozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish. sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash ta'lim mazmunini tashkil etadi.

BOLALAR IJROCHILIGINI SHAKLLANTIRISH

Qo'shiq ijrochiligi. sozlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo'lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqa bolalar kuy va qo'shiqlari, ommaviy xalq kuy qo'shiqlari, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodini bilish. Musiqaning ifodaviy tili: kuy, ritm-usul, suriat, o'lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish. Major va minor ladlarini farqlay bilish. Oddiy musiqa shakllari: bir qisrili, ikki qisimli va uch qisimli musiqa shakllari. Kupletli, rondo, sonata, syuitalar xaqida tushunchaga ega bo'lish. Musiqiy janrlar: asliula. raqs, vals, marsh kabi janrlarini farqlay olish. Asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi sozandalar ijodi bilan tanishish. Ijrochilar: ansambl, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish. Xor ijrochiligi: bolalar. ayollar, erkaklar bilan tanishish. Partiya ovozlari: soprano, alt tenor, bas ovozlari farqlay olish.

MUSIQA SAN'ATINING BOSHQA SAN'AT TURLARI BILAN BOG'LIQLIGI

Adabiyot, kino, teatr kabi san'atlar bilan bog'liqligi. Atoqli o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, qardosh xalqlar kompozitorlari, atoqli o'zbek xalq sozanda va

xonandalari, mashhur ansambllari, orkeslrlari va xor jamoalari haqida tushunchaga ega bo'lishda ushbu san'at turlarini bilishning arjamiyati katta.

I.II.O'QUVCHILARNING TAYYORGARLIK DARAJASIGA QO'YILADIGAN ZARURIY TALABLAR

Umumta'lim maktablarida o'tiladigan barcha fanlar qa'torida o'quvchilar "Musiqqa madaniyati va san'at" fanidan ma'lum darajada bilim va ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Xususan:

1-4 sinflarlarda

- Musiqqa badiiy san'at ekanligini bilish, kuyga tavsif bera olish;
- xalq musiqqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lish; cholg'u asboblarini bilish va tovush tembrlaridan ulami farqlay olish:

- musiqqaga oid oddiy atamalarni bilish;
- musiqaning ifoda vositalarini bilish;
- ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish.

Sinflar bo'yicha talablar quyirigilardan iborat:

I-sinf

Oquvchilar oziyashtirishlari kerak bolgan bilimlar:

- shoir va bastakorni farqini bilish;
- musiqaning badiiy tavsifi (quvnoq, sho'x, g'amgin vav.b.)ni bilish ;
- musiqaning tasviriy tavsifi (tabiat, o'yin, ertak, xazil, o'yinchoqlar obrazlari.. kundalik hayot) haqida tushunchaga ega bo'lish ;
- nota chizig'i, skripka kaliti, etti tovush haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish;
- musiqiy ifoda tavsifiga qarab ijro tiplari sust, sekin, o'rta va tez suratlarda ijro etilishini bilish;
- kuyga tavsif berish (sekin, tez, sakramali) va unda nima ifodalanganligini bilish;
- xalq cholg'u asbobolaridan doira, rubob, nog 'ora, karnay bilan tanishish.

O'quvchilar egallashi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar:

- asar ohangidan unda nima tavsiiilanganligini,- uning ifoda tavsifi (quvnoq, sho'x, g'amgin, hazil va boshqalar) orqali aniqlash;
- cholg'u asboblari- bilan tanishish (doira, rubob, nog'ora, karnay);
- ritmik ifodalarni chorak va nimchorak notalar bilan tasvirlangan kartochkalarga qarab. chapak chalib kuylash;
- chapakda va bolalar cholg'u asboblarida chalib musiqaga ritmik jo'r bo'lish ;
- dirijorning "diqqat", "nafas" va "tugatish" kabi asosiy ish oralariga amal qila olish;

II-sinf

O'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlar:

- asarning nomi, ijodkorlari va badiiy mazmuni haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish:
- musiqaning ifoda tili-kuy, registr va dinamik tuslari haqida tushunchaga ega bo'lish,
- nota yo'lida yetti asosiy bosqichning joylashuvini bilish; cholg'u asboblari, g'ijjak, qashqar rubobi, nog'ora bilan (anishish;
- yakkanavoz, yakkaxon, cholg'uchilar va xonandalar ansambilini haqida tushunchaga ega bo'lish;
- kuyning tuzilishi, uning ifoda vositalari haqidagi tushunAhalari; O'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan ko'nikma ya nialakalar:
- asarning musiqiy tavsiflari tahlilida qatnashish va o'z nuqtai nazarini bayon etisr:
- cholg'u asboblarini tovush tembridanajrata olish ;
- tinglash orqali musiqaning ijro turlari yakkanavoz, yakkaxon, dasta yoki orkestr ekanligini ajrata bilish;
- dirijorlik ishoralari yordamida sof unisonda xor bo'lib kuylash;

III sinf

O'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlar :

- ansambl, orkestr va xor haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish.

o'rganilgan qo'shiqlarning mazmunini va mualliflari haqida tushunchaga ega bo'lish;

- musiqa savodiga doir kuy, usul, ritm, sural, o'lehov notalar shakli va pauzalar cho'zimi. nota yo'lidagi o'lma; major va minor lad (tuzuk) lari xususiyatlari, ularning uchtovushliklari; oddiy musiqashakllari, volta, repriza haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish;

- tinglangan musiqa asarlarining mazmuni. janri (qo'shiq, marsh, raqs) va mualliflari haqida umumiy bilimlarga ega bo'lish:

O'quvchilar egallashlari kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar:

- qo'shiqlar kuylash va ularning janri, shakli, ifoda vositalari haqida fikr bildirish olish;

- mashq va qo'shiqlar kuylaganda o'qituvchining dirijyorlik ishoralariga qarab ansambl bo'lib kuylash o'z qo'shigida nafas olish, qo'shiq so'zlarini to'g'ri talaffuz qilish, dinamik belgilarga rioya etib kuylash olish;

- musiqa asarini diqqat bilan tinglash, uning shakli, qismlari (qismlari), qaytarish va tugatish joylari, janr (qo'shiq, raqs, marsh) undagi major yoki minor tavsifi, ijro turi va asboblarning ishtirokini aniqlash olish;

- oddiy nota yo'zuvlaridan o'rganilgan nota belgilarini topib aniqlash olish; - musiqa tavsifi raqs, turli harakatlarda ifodalab ko'rsatish olish;

- chalak va bola ar kichik urma cholg'u asboblari bilan chalib musiqaga ritmik jo'rbola olish;

IV sinf

O'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlar ;

- Xalq musiqa ijodi haqida tushuncha ;

- O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari; qo'shiq, alia, lapar, yalla, terma, bolalar qo'shiqlari, ommaviy kuylar;

- O'zbek musiqasida bastakorlik uslubi hamda kompozitorlik ijodi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish;

O'quvchilar ega11ashi kerak bolgan ko'nikma va malakalar:

- xalq musiqa janrlarini ohang va ifoda tafsiflariga ko'ra ajrala bilish :
 - bastakorlik va kompozitorlik usiibiga mansub asarlarning tuzilishi va ijro uslubidan ajrata olish:
 - ommaviy xalq musiqa janrlarini kasbiy musiqa (ashula, katta ashula)dan farqlay olish;
 - mashq va qo'shiqlami nota yozuviga qarab kuylash;
 - kichik cholg'u asboblariida chalib, musiqaga ritmik jovr bo'lish;
- ma'lum she'r parchalariga kuy bastalash:

MUSIQANING IFODA VOSITALARI VA MUSIQA SAVODI

Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini egallash ustida olib boriladigan ish jarayonida ularning cho'zimi tushunchasi asta-sekin kiritiladi, musiqa asarlaridagi tovushlar faqat muayyan balandlnkkagina emas, balki muayyan cho'zimga ham ega ekanligiga, qisqa va uzun-cho'ziq tovushlar borligiga diqqatni jalb etiladi. Uzun tovushlarni cho'zib aytish kerak. Bunda qo'shiqning rasmidan foydalaniladi; tovushlar bu jadval rasmda cho'zimga qarab qisqa yoki uzun chiziqchalar bilan ko'rsatiladi. Dastlab faqat chorak va yarim cho'zimli notalar uchraydigan qo'shiqlarni tanlab olish lozim:

a) «Oymoma» qo'shig'idan

A - yam dei - di: ko'k - ka boq:

yo - nib tu - rar bir, chi - roq

Bu qo'shiqning grafik yozuvi quyidagi shaklda ko'rinadi:




Ushbu mashqlarni bajarishda o'qituvchi avvalo qo'shiqni, qanday yozish kerakligini tushuntirib va ko'rsatib beradi, so'ngra, o'quvchilarga xuddi shu xilda mashq qilishni taklif etadi. lalar tamish qo'shiqni yoki melodik parchann aytadilar, keyin uning ritmini qalam bilan parta qopqog'iga chertmak chalib ko'rsatadilar (chanakchalishtavsiya etshshaydi.chunki bu holda intizom buziladi), shundan keyyn o'qituvchi kuynpng ritmik tuzilishini daftarga yozishni taklif qiladi, tekshirib ko'rish uchun bolalardan biri uni doskaga yozib qo'yadi. Oxirida bolalar qo'shiqning doskadagi shakliga qarab uni yana bir marta aytadilar. O'quvchilar qo'shiq ritmini yozish malakasini puxta egallagan laridan keyin tovushlarning baland-pastligi va cho'zimiga tushunchani grafik yozuvga qo'shish mumkin:

«Oymomo» qo'shig'idan



Buning grafik shakli:



Buning grafik shakli:

a) balandligi; b) ritmi; v) balandligi+ritmi.

Unqatorni kuylash

Tovush balandligini o'rganib bo'lgach, o'qituvchi bevosita unqator bilan tanishtiradi. Avval bolalarga nota nomlari bilan melodik misollar beriladn, masalan: *sol, fa, mi, re, do* yoki *do, re, mi, fa, sol* va *do, si, lya, sol* yoki *sol, lya, si, do*. So'ngra butun unqatorni yuqoriga va pastga qarata kuylash mumkim. Lekin bunday kuylashni ko'p marta takrorlab, vokal mashqqa aylantirib yubormaslik kerak. Tovushlar izchilligi haqidagi bilimni va unqator to'g'risidagi tasavvurni mustahkamlash uchungina kuylash zarur. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchilarning unqatorni pastdan yuqoriga kuylashda pastki *do* tovushini zo'riqmay, yengil kuylashlarini kuzatib borishi kerak. O'quv yilining birinchi yarmi oxiriga kelib" bolalar unqatorni yuqoriga va pastga kuylashni yaxshi o'zlashtirgan va tovushlar tartibini puxta bilib olgan bo'lishlari kerak. Ishning tayorlov bosqichi ana shu bilan tugaydi.


Notalarni yozish. Nota yo'li kalit

O'quv yilining ikkinchi yarmida (ikkinchi bosqich) nota yozuvini egallash mashg'ulotlariga kirishi mumkin. O'qituvchi nutqimizni, har bir so'zimizni harflar bilan yozish mumkin bo'lgani kabi, musiqani ham yozish mumkinligini, ammo buning uchun musiqaga xos harflarni—notalar deb ataladigan belgilarni bilish kerakligini tushuntirib beradi, notani yaxshi bilgan kishining har qanday qo'shiqni ayta olishini uqtirib o'tadi.

Notalar nota yo'liga yoziladi. Bunda o'qituvchi data yo'lining ahamiyatini izohlab beradi: nota yo'li — nota yoziladigan o'rindir. U doskaga nota yo'lini chizib ko'rsatar ekan, bolalarning chiziqlar sanog'i boshlanadigan joy—eng pastki chiziq—birinchi chiziq ekanligini bemalol esda qoldirishlari uchun pastki chiziqni chizishdan boshlashi lozim. So'ngra u notalarning chiziq'larga, chiziqlar orasiga, chiziqlarning ustiga va ostiga yozilishini, asosiy chiziqlar yetishmay qolganda esa notalar qo'shimcha, qisqa chiziq'larga yozilishini uqtiradi. Shundan keyin o'qituvchi,

nota chizig'i boshida maxsus belgi—skripka kaliti bo'lmaguncha yozilgan notalardan birontasini ham atay olmaymiz, bu kalit notalar nomini ochib beradi, deydi. U ushbu kalitning nima uchun skripka kaliti deb atalishini aytar ekan, kalitning ikkinchi nomi bo'lgan *Sol* kaliti bilan ham o'quvchilarni tanishtiradi, o'z gajagi bilan nota yo'lining ikkinchi chizig'ini qamrab oladigan kalit *sol* notasining o'rnini ko'rsatishini, shu sababdan uning *Sol* kaliti deb atalishini tushuntirib beradi. *Sol* notasining qaerda turganligini bilib olgan o'quvchi boshqa notalarni ham topishi mumkin. Bolalar notaning o'rnini qanday topish kerakligini juda tez tushunib oladilar; bu narsa maroqli o'yinga aylanib ketadi; o'yin paytida bolalar qaerda qanday nota yozilishini esda qoldiradilar. Har bir notaning o'rnini topishga ana shunday ongli munosabat har qanday yod olish turidan ancha foydaliroqdir, chunki yod oldirishda o'qituvchilar avvalo bolalarga chiziqlardagi notalarni, undan keyin chiziqlar orasidagi notalarni va boshqa shuningdek mashg'ulotlarni *Sol* notasi bilan bog'lamasdanoq o'rgatishaveradi.

Shubhasiz, o'qituvchi barcha notalarni bir darsning o'zida tushuntirib, bera olmaydi; u bolalarning o'zlashtirishlariga qarab har bir darsda yangi-yangi notalarni qo'sha boradi. Shu bilan birga, har bir notani uning eshitilishi bilan bog'lab borish shart. O'qituvchi uni cholg'u asbobida chalib ko'rsagish bilangina kifoyalanib qolmaydi, balki butun sinf bilan kuylashni ham taklif etadi. Bolalar ikki notani, masalan, *sol* bilan *fa* ni bilib olishgach, tegishli notalarning nomini aytib, kichik melodik parchani kuylashni ham topshirish mumkin:



O'rganilgan notalarning soni ko'paya borgan sayin melodik parchalar ham murakkablasha boradi. O'quvchilarga tanish melodik parchalardagi notalarni aniqlash va ularni endi so'zi bilan emas, balki notalarning nomini aytib kuylash taklif qilinadi:

a)

Jo - nim o - nam, jo -nim o - nam,

jo - nim o - nam, jo -nim o - nam

b)

Ba - yu, ba - yu, ba - bay,

tez, tez, tez, uxla.

v) Tez

Din

Bolalarning nota yozuvini bemalol tushunib, 1-oktava doi-asidagi har bir notaning o'rnini yaxshi bilib olishlari uchun quyidagi mashqlarni tavsiya qilish mumkin:

a) o'qituvchi notalarning nomlarini aytib turib yozdiradi yoni doskaga yozib beradi, o'quvchilar esa ularni nota yo'liga yozishlari kerak;


b) o'qituvchi qo'shiq kuyini doskaga yozadi hamda o'quvchilardan uni daftarga ko'chirib yozishni va shundan keyin. Notalarning nomlarini yozib qo'yishni taklif etadi.

Bu mashqlarni barcha o'quvchilar mustaqil ravishda bajarishadi, so'ngra ulardan biri shu mashqlarni doskaga yozadi, boshqalari esa o'z ishlari bilan solishtirib chiqadilar.

Shunga o'xshash mashqlarni uyga vazifa qilib topshirish mumkin;

v) pedagog tanish qo'shiq kuyini doskaga yozib bo'lgach, ko'rsatkichni notadan notaga tomon yurgizadi, o'quvchilar esa notalarning nomlarini birgalikda aytadilar. So'ngra bu kuy notalar nomi aytilgan holda kuylanadi. Bunday mashq qilish bolalarni notaga qarab qo'shiq aytishga o'rgatadi.

Sinfda maxsus musiqa rebuslarini o'ylab topish notalar yoziladigan o'rinlarni yaxshiroq esda qoldirishga yordam beradi. O'qituvchi bir necha rebusni doskaga yozib qo'yadi (yoki oldindan tayyorgarlik ko'rib, rebuslar chizilgan rasmni ilib qo'yadi); rebuslardan birini o'qituvchiyaing o'zi o'ylab topadi, qolganlarini o'ylab topishni esa o'quvchilarga taklif qiladi. Rebuslarni o'qituvchining o'zi o'ylab chiqaradi, undan keyin bolalarga uyda rebus tuzishni tajriba qilib ko'rishni taklif etadi:



Notalar puxta o'rganilgandan keyin, zshitib bajariladigan har xil diktant turlari katta fonda keltiradi:

a) o'qituvchi kichik melodik parchani ikki-uch marta chalib beradi. Bolalar dastlab uni nota (*lya* ga mo'ljallangan nota) nomini aytmasdan kuylashadi, so'ngra tovushlarning balandlik holatini aniqlashib, notalarning nomini aytganlari holda kuylashadi. Melodik parchalarning juda oddiy bo'lishi, ikki-uch notaga mo'ljallab tuzilishi lozim:



MUSIQA ASARLARINING TUZILISHI HAQIDA TUSHUNCHA

O'quvchilar qo'shiq o'rganib, turli musiqa asarlarini eshitar ekanlar, musiqa shakllari tuzilishining ba'zi printsiplari bilan tanisha borishadi. Bolalar qo'shiqlarida band shakli keng yoyilgan. Bolalar o'qituvchining: «birinchi bandni aytamiz» yoki

«ikkinchi bandni takrorlaymiz» degan soʻzlarini eshitishar ekan, asarning bandlardan tuzilishi haqida tushuncha hosil qilishadi.

Bir qancha qoʻshiqlarda naqarot ham boʻladi. Ular bu termini ham osonlik bilan esda qoldirishadi. Dastlab oʻqituvchi shunday terminlardan qoʻllanadi, oʻquvchilar esa hali bularning maʼnosiga tushunmasdan takrorlashadi. Lekin II sinfda oʻqituvchi bolalarning diqqatini qoʻshiqlarning tuzilishi har xil boʻlishiga jalb etadi. Baʼzi qoʻshiqlarda ayni bir melodik material takrorlanadi-yu, faqat sheʼr soʻzlari oʻzgaradi. Boshqa xil qoʻshiqlarda band ikki qismdan — musiqa jihatidan turlicha boʻlgan peshtalqin (qoʻshiqning boshi) va qaytarma naqarotdan iborat; shu bilan birga, peshtalqin (qoʻshiqning boshida) sheʼr soʻzlari oʻzgaradi, naqarotda esa, odatda, bir xil soʻzlar takrorlanaveradi. Shunday qilib, ikki qismli shakl bilan ham tanishiladi.

Bir oz keyinroq bolalar uch qismli shakl haqida tasavvur hosil qilishadi; bu shakl oʻrta va chetki qismlar oʻrtasidagi musiqa materialining kontrastli (qarama-qarshi) taqqoslanishi-ga asoslanadi. Uch qismli shakldagi qoʻshiqlar uncha koʻp uchramaydi, shu sababli bu shakl bilan, asosan, koʻpgina misollar topiladigan musiqa tinglash boʻlimida tanishib chiqiladi.

Yuqori sinflarda oʻquvchilar murakkab va katta asarlarni tanlab, rondo, variatsiya (xilma-xil tarona)lar, sonata allegrosi kabi musiqa shakllari toʻgʻrisida maʼlumot oladilar.

Oʻqituvchi faqat tegishli musiqa shakllarining tuzilish xususiyatlarini tushuntirish bilangina cheklanib qolmaydi, balki oʻquvchilardan musiqa shaklini aniqlay bilish koʻnikmalarini egallashni ham talab etadi. Avval ular bu ishni oʻqituvchining yordamida bajaradilar, undan keyin tegishli musiqa shakllarini mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Quyi sinflarda bolalarning materialni qanchalik oʻzlashtirganliklarini aniq bilib olish uchun oʻqituvchi ularga pesa ijro etilayotgan paytda yangi qism boshlanayotganligini koʻrsatib qoʻl koʻtarishni taklif qiladi. Bu ishni shakli aniqlangan tanish asar misolida bajarish maʼqul. Keyinroq buni yangi asar asosida

sinab ko'rish mumkin, ammo dastlab bu asarni bolalarga bir marta chalib yoki kuylab eshittirish kerak.

Musiqqa savodini o'rganishda dinamika, temp, rang-barang tus berish, tovush yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari kabilarga taalluqli alohida belgilar va maxsus terminologiya bilan tanishishga katta urin beriladi. O'qituvchi I cinfdan boshlab *crescendo*, *diminuendo*, *piano(p)*, *forte (f)*, *mezzo forte (mf)* kabi belgilarning nomi va ahamiyatini bolalarga asta-sekin bayon qila boradi.

O'quvchilar tempga oid belgilardan qo'shiqlarda dam-badam uchraydigan *Allegro*, *Moderato*, *Andante*, *Maestoso* va boshqalarni bilishlari kerak.

Musiqqa savodini o'rganishning oxiriga kelib o'quvchilar qo'shiqni mustaqil tahlil qilib, uning ladi-pardasini, tonligini, o'lchovini, shaklini, tempini, dinamik tuslarini, ijro xarakterini aniqlay bilishlari, nota matnida qanday qo'shimcha belgilar uchrashini va bularning nimani bildirishini oydinlashtira olishlari lozim. Notaga qarab qo'shiq aytish tobora tushunarli va jo'nroq bo'la boradi, demak, qo'shiq osonroq yodda qoladigan bo'ladi.

Ashula darslarining bolalarga musiqqa savodini o'rgatish usulikasi bilan tanishtiradigan bo'limi oxirida ba'zi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Musiqqa savodini o'rgatish ishini (xorda) birgalashib qo'shiq aytish bilan chambarchas bog'lab olib borish, ya'ni barcha tushunchalar, bilim va malakalarni bolalarning amaliy faoliyatida, qo'shiqlarni o'rganish va ijro etishda, notaga qarab kuylashda mustahkamlab borish kerak.

2. Musiqqa savodini o'rganish jarayoni asosiy didaktik printsiplarga muvofiq bo'lishi lozim: ta'limning ilmiy, izchil va tizimli printsiplarda bo'lishi, oddiydan murakkabga o'tila borishi, materialni ongli ravishda idrok etish, ko'rsatma materiallardan foydalanish, o'tilgan materiallarni takrorlash va mustahkamlash, ta'limda jamoachilik bilan birga bolalarga nisbatan individual muomalani uyg'unlashtirib borish qoidalariga albatta rioya qilish zarur,

3. Musiqqa savodini o'rgatish ishi *ko'rayapman* — *eshityapman* — *kuylayapman* degan printsiptga asoslanmog'i kerak. Bolalarning tinglash malakalarini o'stirish ashula o'qituvchisi oldida turadigan asosiy vazifalardan biridir.

Musiqaning xilma-xil ifoda vositalarini bilish, qo'shiq aytishda nota yozuvlaridan erkin foydalana bilish, rivojlangan yaxshi eshitish va kuylash malakalari bolalarning asarni puxta va badiiy ijro etishlarigagina yordam berib qolmay, balki insonni ma'naviy boyitadigan va kamol toptiradigan jiddiy musiqani idrok qilishlari uchun ham yordam beradi.

Badiiy havaskorlar qatorini yaxshi tayyorlangan ijrochilar hisobidan to'ldirib borish mamlakatimizda san'atniig ravnaq topa borishiga yordam qiladi.

O'quvchilar yil sayin simfoniya va xor musiqasining yangi janrlari bilan tanishib borishadi. N. Rimskiy-Korsakovning «Shahrizoda» va E. Grigning «Per Gyunt» simfonik syuitalari o'quvchilarni programmali simfonik musiqa doirasiga olib kiradi, musiqa asarlarining syuita tuzilishi bilan tanishtiradi. Bu ma'lumotlar A. Kozlovskiyning «Qoraqalpoqcha syuita» sipi va S. Yudakovning «Mirzacho'l» vokal-simfonik syuitasini o'rganishda mustahkamlanadi. Bu asarda o'quvchilar syuitaning bir turi bo'lgan yakkaxonlar va xor ishtirok etadigan asar bilan tanishadilar. Programmada simfonik asarlar L. Betxovenning 5-simfoniyasi va P. Chaykovskiyning fortepyano va orkestr uchun kontserti (*b-moll*) kabi ajoyib klassik musiqa namunalari vositasida ko'rsatilgan. O'quvchilar o'zbek kompozitorlarining ijodini Ik. Akbarovning «Shoir xotirasi» va S. Boboevning «Bayram kupi» simfonik poemalari namunasida o'rganishadi.

Yuqori sinflarda cholg'u asboblari musiqasini o'rganish davom ettiriladi, shu bilan birga, faqat fortepyano musiqasigina emas, balki skripka yoki violonchelda ijro qilinadigan musiqa ham o'rganiladi. P. Chaykovskiyning «Noyabr», A. Dvorjakning «Melodiya» (skripka uchun), K. Sen-Sansning «Oqqush» (violonchel uchun) kabi asarlari namuna tariqasida tanlab olinadi.

O'qituvchi L. Betxoven sonatalari (5- sonata va «Appassionata») namunasi asosida o'quvchilarga sonata tuzimining xususiyatlarini, sonata Allegrosining xarakterli xususiyatlarini tushuntirib beradi.

Shunday qilib, sinfdan-sinfga kucha borgan sayin «bolalar» ga xos oddiy, yengil repertuardan «kattalar»ga xos jiddiy, chuqur repertuarga o'tib boriladi.

MUSIQA ASARLARIGA DOIR MA'LUMOT

Musiqqa asarlarini o'rganish jarayonida bolalar bir qancha asarlarni eslab qolishlari, shu asarlar haqida to'g'ri tushuncha hosil qilishlari, xatto ularni yaxshi ko'rishlari bilan birga, musiqaviy ta'sirchanlik vositalari to'g'risida ma'lumot olishlari kerak. Shuningdek, bu ish jarayonida musiqqa savodi musiqqa tinglash bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Musiqqa savodi bo'limida olingan bilim musiqqa asarlarini o'rganishda amaliy tatbiq qilinadi. Bolalar musiqqa tinglashga asta-sekin odatlanibgina qolishmay, balki uning haqida gapirib berishga xam o'rgana borishadi. Shubhasizki, bu narsa birvarakay sodir bo'lib qolmaydi. O'qituvchining tinglangan asarlar xususidagi tushuntirishlari, uning o'sha asarlarda turli vositalar va musiqaviy ta'sirchanlik elementlaridan foydalanish to'g'risida hikoya qilib berishi tufayli bolalar musiqqa tinglash jarayonida musiqqa mustaqil suratda tahliliy (analitik) munosabatda bo'lishga tayyorlana boradilar.

Quyi sinflarda tinglab o'tilgan asarlar to'g'risida o'qituvchining savollari va o'quvchilarning javoblari shaklida suhbat olib boriladi. Bolalarning ma'lum bir asar haqidagi tasavvurlarining barqarorligi va to'liqligi savollarning nechog'liq puxta o'ylanib, mantiqiy va ma'nodor qilib ifodalanishiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar asosan asarning o'ziga xos xususiyatiga, uning tempi va dinamikasiga taalluqli savollarga javob kaytara bilishlari, raqsni va cho'zib aytiladigan xalq qo'shiqlarini ajrata bilishlari, ikki va uch qisimli shaklni aniqlay olishlari kerak.

Bolalarga kompozitor to'g'risida beriladigan ma'lumotlarning hajmi uncha katta bo'lmasligi va tegishli sinfdagi bolalar yoshiga mos bo'lishi lozim. O'quvchilarga kompozitorning ismiga famiyalisidan tashqari, uning millati va yoshi aytib o'tiladi. Boshlang'ich sinflarda kompozitorlar haqida tarjimai holga oid mufassal ma'lumot berilmay, balki ularning ijodiy va shaxsiy hayoti to'g'risida eng qiziqarli epizodlar gapirib beriladi. Chunonchi, bolalar Motsart haqida hikoya qilinganda, uning g'oyat barvaqt namoyon bo'lgan pianinochilik va kompozitorlik iste'dodi haqida eshitishni yaxshi ko'rishadi. Agar o'qituvchi o'z hikoyasini yaqqol misol bilan mustahkamlasa, bu kompozitorning sakkiz yasharlik vaqtida yaratgan

pesalari to'plamini sinfga olib kelib, ulardan birini chalib beradigan bo'lsa, o'quvchilar Motsart ijodiga umrbod juda qiziqib qolishadi. O'qituvchi P. I. Chaykovskiyning «Bolalar albomi»ni ko'rsatar ekan, ulug' kompozitorning bu albomni musiqa bilan shug'ullanish, poyonsiz gamma va etyudlarni chalaverish zerikarli bo'lib ko'ringan jiyani Vova Davidov uchun yaratganligini gapirib berishi mumki. Pyotr Ilichning ajoyib kichkina pesalari bu bolani 'musiqa mashg'ulotlariga qiziqtirishga yordam bergan. P. I. Chaykovskiy har bir darsga mo'ljallab ayrim pesalar g'ratib, keyinchalik ularning hammasipi bir albomga to'plaganda, Vovaga sovg'a qilgan.

Shubhasiz, o'qituvchining hikoyasi juda yorqin, jozibali va obrazli bo'lmog'i kerak.

Yuqori sinflarda o'quvchilar musiqa asarlarini mustaqil tahlil qila bilishlari, ular haqida ko'makchi savolsiz gapirib bera olishlari, tinglangan asarlar to'g'risidagi fikrlarini himoya qilib, asoslab bera olishlari lozim. O'qituvchi ta'limning shu davrida ham o'quvchilarning tegishli fikrlarini zarur tomonga yo'naltirishi kerak, ammo bu aralashuv zo'rma-zo'raki tarzda bo'lmasdan, ustalik bilan, ko'ngilli, yoqimli bo'lishi lozim.

Yuqori sinflarda o'quvchilar kompozitorlarning hayot va ijodiy yo'li haqida ma'lumot olishadi, ularning ijodiga xos xususiyatlar bilan xanishishadi, shu ijodniig musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatipi bilib olishadi. Masalan, kompozitorlardan N. Rimskiy-Korsakov yoki A. Borodinning ijodini o'rganishda o'kituvchi «Qudratli to'da» kompozitorlarining faoliyati haqida, ularning rus musiqasi tarixidagi roli to'g'risida gapirib berishi kerak.

Ashula darslarining «Musiqa tinglash» bo'limida bolalarni «Vatan haqidagi qo'shiqlar», «Xalq qo'shiqlari», «O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi», «Tinchlik haqida musiqa» mavzulari bilan tanishtirish katta g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Yunus Rajabiyning musiqani sevganligi, uning milliy musiqamiz to'g'risidagi fikrlari haqida hikoya qilib berish bolalarning nazarida musiqa san'atini o'rganishning roli va ahamiyatini oshiradi, ularning ongida musiqa bilimini egallashning muhimligi va zarurligini ta'kidlaydi.

O'quvchilar simfonik orkestr va xalq cholg'u orkestrining turli asboblari bilan tanishishlari, ularni tembriga qarab aniqlay olishlari, tegishli cholg'u asboblari uchun yozilgan asarlarni kompakt disklardan eshitishlari kerak. O'quvchilar bu cholg'u asboblarini o'z ko'zlari bilan ko'rishlari matlub. O'qituvchi imkon boricha cholg'u asboblarini sinfga olib kiradi, ularni chalish usullarini va tovush xarakterini namoyish qiladi. Bunga iloj bo'lmasa, u cholg'u asbobining rasmini ko'rsatadi, kompakt disk qo'yib, uning tovushini eshittiradi.

Musiqasi bilan tanishish jarayonini tashkil etish

Yil mobaynida bolalar o'rta hisobda 12—15 musiqasi bilan tanishishlari kerak. Har bir darsda taxminan 5—7 daqiqa davomida musiqasi tinglab borish kerak. Bolalarning diqqati ancha mustahkamlangach, III sinfdan e'tiboran ba'zan musiqasi tinglash uchun ko'proq vaqt —10—15 daqiqa ajratish mumkin. Asarning birorta bo'limini chuqurroq o'rganish uchun ana shunday musiqasi tinglash tavsiya etiladi. Bordi-yu, bunday darslar chorak oxirida o'tkaziladigan bo'lsa, ular topishmoq shaklida tuzilgan sinov darslar bo'lishi mumkin. O'qituvchi o'tilgan asarlarning hammasini to'liq chalib beradi. Qichik asarlarni yoki katta asarlarning ayrim parchalarini, ayrim mavzularni chalib chiqadi, o'quvchilar esa o'sha asarlarning nomini aytib berishlari va har qaysi asarning avtorini (vokal asar bo'lsa, kompozitori va shoiri) to'g'risida, mazkur asarning tuzilish xususiyatlari va musiqaviy ifoda vositalaridan foydalanish darajasi haqida bilganlarini birma-bir gapirib berishlari lozim. V sinfdan boshlab yuqori sinflarda butun darsni musiqasi tinglashga bag'ishlash mumkin. Bu sinflar programmasiga ancha jiddiy asarlar, operalardan saraxbor (uvertyura)lar va ariyalar, simfoniyalar, fortepyano kontsertlari kiritilganki, bu asarlarni ijro etish uchun ko'p vaqt talab etiladi. Bundan tashqari, o'qituvchining izohlari va o'quvchilar bayon qiladigan fikrlar tobora mufassallashtirilishi boradi. Bu sinflardagi o'g'il bolalarda rasta (mutatsiya) alomatlari paydo bo'lsa, kuylash ancha qiyinlashadi, qiz bolalardagi o'smirlik yoshi tovushni ancha ehtiyotlik bilan avaylashni talab qiladi. Shuning uchun birgalashib qo'shiq aytishga

mo'ljallanadigan vaqtni birmuncha qisqartirish va shuning hisobiga musiqa adabiyoti bilan tanishish vaqtini ko'paytirish zarur. Buning ustiga, shu yoshdagi bolalarning musiqaga havasi, ko'proq musiqa tinglash xohishi ayniqsa namoyon bo'la boshlaydi, ularda karashlar va didlar tarkib topa boradi.

O'qituvchining darslarni to'g'ri tashkil qilishi—musiqa tinglash mashg'ulotlarining samarali, muvaffaqiyatli o'tishining muhim shartidir. Sinfda vaziyat tinch va birmuncha tantanali bo'lishi lozim. I sinfdayoq o'qituvchi bolalarga, musiqa asarlarini tinglash vaqtida boshqalarning eshitishlariga xalaqit bermaslik chorasini ko'radi, buning uchun xuddi kontsertdagidek jim o'tirish kerak, deb uqtiradi. Chunki o'qituvchi intizomni buzar ekan, birinchidan, u ijro etuvchini mensimayotganligini ko'rsatadi, ikkinchidan, o'rtoqlariga halal beradi. O'qituvchi asar ijro etilayotgan paytda qo'zgalmasdan, qulay o'tirib musiqa tinglash kerakligini, o'girilish, qog'ozni shildiratish, hatto shivirlab gaplashish, o'qituvchiga savol berish va iltimos bilan murojaat qilish mumkin emasligini bolalarga tushuntirib beradi. Musiqani ixlos bilan zehn qo'yib, dildan, diqqat bilan tinglash kerak. Sinfda musiqani shu tarzda tinglashga o'rgatib borish yo'li bilangina bolalarni teatr va filarmoniyalardagi kontsertlarni madaniy tinglovchilar qilib tarbiyalay olamiz.

O'qituvchilarning, ayniqsa diqqati tez chalg'ib turadigan quyi sinf bolalarining, musiqani diqqat bilan tinglashlari uchun asarni ijro etishdan oldin o'qituvchilarga musiqa ta'sirchanligining biron elementiga diqqat-e'tiborni jalb etish maqsadida muayyan vazifalar berish foydalidir. Masalan, bolalarga asar kecha qismdan tashkil topganligini, dinamikaning qanday rivojlanib borishini aniqlash, asosiy mavzu (kuy)ni eslab qolish kabi vazifalarni taklif qilish mumkin. Shu bilan birga, asar ijro etilayotgan paytda savol berish va javob qaytarish mumkin emasligini, asarni oxirigacha osoyishta (xotirjamlik bilan) tinglab bo'lgach, javob bermoqchi bo'lgan bolalar qo'l ko'tarib, o'qituvchining chaqirishini kutib turishlari kerakligini ochiq-oydin tushuntirib berish zarur.

MUSIQA ASARLARI BILAN TANISHTIRISH USULLARI

Darsda o'qituvchining asarlarni to'g'ri ijro etish usulikasi katta ahamiyatga egadir. Chunki o'quvchilarning asarni tez va sifatli o'zlashtirishlari ana shunga bog'liq bo'ladi. Asar ustida ishlashning ko'pgina sabablarga (asarni xarakteri, uning tuzilish xususiyatlari, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, sinfning sostavi va shu kabilarga (bog'liq bo'lgan turli usullari bo'lishi bilab birga, uni o'rganish jarayonida bir qancha umumiy paytlar ham mavjuddir. Masalan:

1. Qisqacha kirish suhbatini o'tkazish.
2. Asarni ko'rsatib berish (o'qituvchining uni ijro etishi yoki kompakt disk qo'yib eshittirishi).
3. Tinglangan asar to'g'risida suhbat-tahlil.
4. Shu darsda va keyingi darslarda asarni qaytadan namoyish qilish.

Mana shu masalalar ustida mufassalroq to'xtalib o'taylik.

O'qituvchi darsda asarni ijro etishdan oldin o'quvchilarni asarni idrok qilishga tayyorlashi, ularning asarni chuqurroq anglab olishlariga, his etish va baho berishlariga yordamlashi zarur. Buning uchun o'qituvchi asarni birinchi marta ijro etishdan oldin qisqacha kirish suhbatini o'tkazadi, bundam ko'zlanadigan maqsad o'quvchilarni musiqa tinglashga hissiy tayyorlashdir. Odatda, o'qituvchi asar avtorlarining nomlarini ataydi, ularning hayoti va faoliyati haqida qisqacha gapirib beradi, asarning yaratilish tarixidan olingan biron faktni bayon qiladi, musiqaga umumiy xarakteristika beradi, asarning mazmuniga va tuzilishining o'ziga xos tomonlariga to'xtalib o'tadi, shunday keyingina o'quvchilarning diqqatini to'plab va ularda qiziqish uyg'otib, asarni ijro etishga kirishadi.

Suhbatni ko'rsatmali qurollar bilan: suratlar, rasmlar, opera ko'rinishlari va mashhur ijrochilarga oid fotosuratlar bilan boyitish juda foydalidir.

O'quvchilarning asarga munosabati o'qituvchining uni ko'rsatib berishiga bog'liqdir.

Asarni o'rganishda uni ijro etib ko'rsatib berish juda muhim paytdir. Asar bilan tanishishda hosil bo'lgan birinchi taassurot hamisha ayniqsa yorqin va kuchli taassurotdirki, u sira esdan chiqmaydi. Agar asar o'quvchilarga darrov yoqib qolsa,

u holda o'qituvchining asar ustida ishlashi oson bo'ladi. Aksincha, ularga yoqmagan asar ustida ishlashda o'qituvchining bolalarda shu asarga nisbatan oldindan tug'ilgan salbiy tushunchani bartaraf qilishiga to'g'ri keladi, bu esa, shubhasiz, o'quvchilarning materialni o'zlashtirishlariga anchagina g'ov bo'ladi.

Bolalarning musiqani diqqat bilan va huzur qilib tinglashlari uchun asarning yuqori saviyada ijro etilishi muhimdir. Asarni yuksak badiiy saviyada ijro etishgina o'quvchilarni jalb etishi va tinglangan musiqaga havas uyg'otishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'qituvchining asarni bevosita ijro etishiga nisbatan kompakt diskdan eshittirishi ancha beparvolik bilai idrok qilinadi. Shu sababdan agar o'qituvchi fortepyanoni yaxshi chala bilsa, u bolalarga imkon boricha ko'proq chalib berishga intilishi lozim. Ammo o'qituvchining o'zi ijro etadigan asarlarni uyda juda puxtalik bilan tayyorlashi, notalar bilan o'ralishib qolmaslik, bolalar bilan aloqa qilish, ularga nazar solish imkoniyatiga ega bo'lish uchun asarni sinchiklab o'rganib olishi zarur. Asarni jo'shqip, ta'sirli va puxta o'ylab ijro etish kerak. Agar vokal asar bo'lsa, o'qituvchi, garchi ovozi uncha kuchli bo'lmasa xam, shu asarni so'zi bilan aytib berishdan tortinmasligi lozim. Asarni yaxshi bilib olish muhimdir, o'shanda o'qituvchi uni ijro etishi bilan bolalarni qo'shiqning kompakt diskdagi yozuviga Karaganda ko'proq jazb eta oladi, chunki «jonli» ovoz hamisha yaxshiroq idrok qilinadi.

Ammo o'qituvchi hatto haqiqiy ashulachi va yaxshi pianinochi bo'lsa xam, programmada ko'rsatilgan, ayniqsa o'rta sinflarga mo'ljallangan barcha asarlarni ijro etishni doimo birday ta'minlay olmaydi. U o'quvchilarda xor, orkestr, turli cholg'u asboblari, opera ariyalari, ansambl kabilarning eshutilishi to'g'risida mukammal-to'liq tasavvurlar hosil qila olmaydi. Shu sababli maktabda eng yaxshi jamoalar va yakkaxon hofizlar ijrosidagi musiqqa asarlari yozib olingap kompakt disklar to'plami bo'lishi g'oyat zarur. Hozirgi vaqtda programmadagi ko'pgina asarlar kompakt disklarda bor; «Musiqqa tinglash» bo'limiga doir qo'llanma tariqasida chiqarilgan maxsus kompakt va DVD disklar komplektlari mavjud. Ulardan bemalol amaliyotda foydalanish mumkin.

O'qituvchi kompakt diskdagi asarni eshittirar ekan, o'zi xam shu musiqa asari yoki mavzuning ayrim parchalarini dadil chala bilishi yoki kuylay olishi kerak.

Musiqa asarini birinchi marta o'qituvchi to'la-tekis ijro etishi shart. Agar bu opera, simfoniya yoki kantata bo'lsa, batafsil o'rganiladigan parcha yoki qism o'qituvchi tomonidan to'liq ijro etiladi.

So'ngra tahlil qilish jarayonida o'qituvchi ayrim musiqa tarkiblarini, ba'zi parchalar va mavzularni chalib va kuylab beradi, pirovardida esa, go'yo yakun chiqargandek, asarni yana to'liq ijro etadi.

O'qituvchi keyingi darslarda materialni mustaxkamlash va chuqurroq o'zlashtirish uchun (agar bu asar kichkina bo'lsa) to'liq ijro etadi, katta bo'lsa, uning ayrim qismlarini chalib beradi.

Musiqa asarini ijro etgandan keyin o'qituvchi uni o'quvchilarning bevosita ishtirokida suhbat shaklida tahlil qilishga kirishadi. Asarning tuzilish xususiyatlari (shakli, ladi (pardasi), tonligi, garmoniyasi, ohangdoshligi, xarakteri, tempi kuyi, jo'rnavozlikning roli, xor fakturasi kabilar) oydinlashtiriladi. Bu tahlilda asarning tuzilishi va tovush berishining tegishli elementlarini qayd etish bilangiia cheklanib qolmay, balki qo'shiqdagi badiiy obrazni yaqqol gavdalan tirish uchun kompozitor foydalangan turli ifoda vositalarining rang-barangligini xam ko'rsatish kerak. O'qituvchi suhbatni jonli, bevosita fikr olishuv shaklida olib boradi, puxta o'ylab kuyilgan bir qancha savollarii o'rtaga tashlaydi, bu savollarga beriladigan javoblar asar mazmunining qanday musiqaviy vositalar bilan ifodalanganligini oydinlashtiradi. Shu bilan birga, u o'quvchilar diqqatini asarning o'ziga xos xususiyatlariga jalb etadi va ularni musiqa asarini to'g'ri baholashga asta-sekin tayyorlab boradi. Musiqa asarining tinglovchilarga nish uchun shunday kuchli ta'sir ko'rsatganligi suhbatlar davomida o'quvchilarga ayon bo'lib qoladi.

Shunday qilib, asar tahlilini musiqaning umumiy xususiyatlaridan boshlab tafsiliy ravishda ayrim bo'laklariga qarab davom ettirish va tugallash zarur. O'qituvchi asar haqidagi fikrini va unga beradigan bahosini o'quvchilarga aslo zo'rma zo'raki o'tkazmasligi lozim. Oqilona o'tkazilgan suhbat, ma'lum maqsadni ko'zlab berilgan aniq savollar, o'quvchilarning ustalik bilan o'z vaqtida muayyan

maqsadga yo'naltirilgan fikrlari, o'qituvchining suhbat mazmunini ishonarli qilib, asosli ravishda yakunlashi musiqani to'g'ri tushunishga yordam beradi va o'quvchilarning to'g'ri xulosa chiqarishlariga yo'l ochadi.

Suhbatlarni o'quvchilarning faol ishtirokida maroqli, zavqli qilib o'tkazish lozim. Sinfda shunday ijodiy vaziyat tug'dirish kerakki, bunda o'quvchilar tinglangan asarda o'zlarini nimalar hayajonlantirganligi, ayniqsa, nimalar ularga yoqib qolganligini tortinmasdan samimiy ravishda gapiradigan bo'lsinlar.

Suhbat, analiz, o'qituvchining izohlari juda aniq, qisqa, mantiqiy va konkret bo'lishi, bularning hammasi, musiqani bevosita idrok etish bilan albatta mustahkamlana borishi kerak, Yuqori sinflarda o'qituvchi og'zaki tushuntirishlarni ancha qisqartirishi mumkin, chunki o'quvchilar ko'pgina tarixiy va nazariy ma'lumotlarni ashula darsliklaridagi tegishli maqolalardan o'qib, bilib olishlari mumkin.

Bundan tashqari, o'qituvchi musiqa masalalari yuzasidan o'quvchilarga tushunarli bo'lgan turli adabiyotni: kompozitorlarning hayoti va ijodi to'g'risidagi, o'quvchi kutubxonasi seriyasida nashr etilgan ayrim musiqa asarlari haqidagi broshyuralarni tavsiya qilishi kerak. Bu adabiyot o'quvchilarning aktivligi va mustahqilligini kuchaytira borishga yordam beradi.

O'quvchilarga alohida daftar tutib, kompozitorlar va musiqa asarlari tugrisida qushimcha manbalardan olingan eng muhim va qiziqarli ma'lumotlarni yozib borishni tavsiya etish yanada foydali bo'ladi.

O'qituvchi keyingi darslarda asarni qayta ijro etishida shu asar haqidagi ma'lumotlar doirasini asta-sekin kengaytiradi, yangi fakt va tafsilotlarni bayon qiladi, asar tuzilishining boshqa xususiyatlariga diqqatni jalb etadi.

Asarning ko'p marta takrorlanishi uning yaxshiroq o'zlashtirilishiga va esda qolishiga yordam beradi.

Pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha maktab yoshidagi o'quvchilarning musiqaviy ijodiy o'sishiga musiqaviy idrok, musiqaviy ijodiy rivoj bilan musiqaviy savodxonlikni oshirish maqsadga muvofiqdir. Musiqaviy ta'lim jarayonida hamisha

ijodiy faollikni o'zlashtirishga yo'nalganlik tamoyili ustuvor bo'lishini hisobga olish zarur. Musiqaviy savodxonlikni o'quvchilarga faollashuviga yordam beradigan voqelik tamoyillari:

- Ijodiyotga moyillik, layoqatni yo'naltirish orqali o'quvchi uchun qiymatli faoliyat darajasiga ko'tarish.
- O'quvchilarni musiqaviy savodxonlik faoliyatiga qiziqishini uyg'otish.
- Oddiydan murakkabga amal qilish.
- Musiqiy terminlarni ko'rgazmalilikka amal qilib tushuncha berish.
- Berilgan bilimlar yuzasidan ko'nikma va malakalarni natijasini mohirlik bilan baholab borish.
- O'quvchilarni musiqaviy qobiliyatini ijodiy rivojning o'zaro aloqasini inobatga olish.
- Savodxonlik qobiliyat rivojini ta'minlovchi pedagogik ta'sir o'tkazish vositalarini qo'llash.
- Musiqani ko'proq bilish bolalar ijodiy faolligini shakllantirish negizi ekanligini yodda tutish.
- Ta'limning boshlang'ich bosqichida musiqiy "Eshituv davri"ning zaruratini his etish.
- Musiqani savodxonlikni o'rganishga ijodiy yondashuv; (zamonaviy uslublar)
- Musiqaviy ijodiy faoliyatda o'quvchilarning emotsional va intellektual imkoniyatini jalb etish asosida.
- O'quvchining savodxonlik ijodiy rivojini uzluksiz ravishda tashxislash.

Musiqani darsining sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan jarayonni shakllantirishda ijtimoiy psixologik xususiyatlar muhim o'rin tutadi.

Birinchi o'ringa, musiqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va iqtidori, estetik dunyoqarashi, musiqiy o'quv darajasining rivojlanganligi, xarakter va irodaviy xususiyatlarning uyg'unligidan kelib chiqishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari idrokiy jihatdan musiqa savodxonligini va musiqiy asarlarni soddalik, tushunilishi oson mazmun va o'ziga hos quvnoqlik mujassamlashadi.

O'smirlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilari musiqa asarlarining ohangi va she'riy matni mazmuniga ifodaviy vositalarining qo'llanish usullariga e'tibor beradi.

Ikkinchidan miliy va ma'naviy hususiyatlar sharoitidagi mehnatsevarlik, irodalilik, mardlik, oriyat, kamtarlik, urf-odat va an'analarga sadoqat kabi fazilatlar ham o'quvchilarda muhim o'rin tutadi.

Uchinchidan, o'qituvchi musiqa darlsini qay darajada tashkil qilish hamda o'quvchining sinfdagi, maktabdagi do'stlari, oila a'zolarining musiqaga munosabati musiqiy idrok shakllanishiga ta'sir etadi.

To'rtinchidan, musiqa san'ati abstrakt san't turlaridan biri bo'lganligi uchun uni ijrok qilishda o'ziga hos hususiyatlar mavjud:

-Dars davomida musiqiy faoliyatni amalga oshirish uchun qulay psixologik iqlim yaratish.

-Musiqa savodidan o'tilajak mavzularni ko'pincha darslar davomida o'yin metodlaridan foydalanish orqali murakkab materiallarni o'zlashtirish faolligini oshiradi.

Shu bilan birga quyidagi jadval asosida tuzib, bolalardagi musiqaviy savodxonlikni aniqlash mumkin:

№	O'quvchilarning I.SH.	Ball
1.	Musiqiy sezgisi	10
2.	Musiqiy idrok	10
3.	Musiqaviy xotirasi	10
4.	Musiqaviy tafakkur	10

1. Musiqaviy sezgisini aniqlash kerak bo'lsa, o'quvchilarning kuyni eshita bilishi va nota yozuvini o'qiy olishi, o'zi biladigan qo'shiqni kuylatib tovushni aniq

eshita bilish, aniq tonga tushishiga qarab jadvalning musiqaviy sezgisi degan joyga 10 ballgacha baholab boriladi.

2. Musiqaviy idrokni aniqlashda biror-bir qo'shiqni qisqa vaqt ichida ijrosi o'rgatilib o'quvchidan ijro qilib berish so'raladi. Ritmik idrokni esa stolga urib ritmik usul chalinadi yoki birorta asbobda ko'rsatiladi va o'sha zarb usulini takroriy chalish so'raladi. Hulusa bahosi jadvalining musiqaviy idroki degan joyga 10 ballgacha qo'yiladi.

Musiqiy idrokni aniqlashda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan omillar esa:

A) o'quvchining musiqiy savodi

B) musiqani tinglay olishi.

V) nota asosida kuylay (ashula) olishidan iboratdir.

A) O'quvchining musiqa savodi lad, tonlik, ohangdoshlik haqida tushuncha hosil qilish mashqlar va qo'shiqlar yordamida ularni mustahkamlash, o'lchovlar haqida aniq tushunchaga ega bo'lish natijasida o'quvchilar musiqiy savodxonligi oshadi.

Dastlabki yillarda o'zlashtirgan bilimlarni takrorlab, musiqiy malakalarini mustaxkamlaydilar.

B) Musiqa tinglash.

So'zlar ayrim harflardan tarkib topgani kabi kuy ham ayrim tovushlardan tashkil topadi. Aynan bir harfning o'zi turli hil so'zlarni yaratgani kabi bir hil asosiy tovushlar do, re, mi, fa, sol, lya, si, do – turli hil kuylarni yaratadi. Kuy tasodif emas hamda tovushlarning istalgancha birikuvi emas, bu badiiy anglangan va bunyodkorlik g'oyalaridan tashkil topuvchi fikrlar ekanligini tushuntirish.

V) nota asosida kuylash.

Oddiy tonalliklarning kalit yonidagi musiqiy belgilarini bilish hamda ular asosida gamma va turli mashqlarni kuylash. Kuylanayotgan asarning qaysi millat, elat ruhiyatni va mentaliteti asosida yozilganligiga e'tiborini qaratgan holda kuylash.

3. Musiqaviy xotirasini aniqlash uchun o'quvchining hozirga qadar o'rgangan qo'shiq va musiqa savodi mavzulari so'raladi. Bundan yosh hususiyatlarni inobatga olib oldinroq quyi sinflarda o'rgangan mavzulardan ham so'rash zarur. Bunda uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolgan materiallarni bilib, bundan oldin tinglatgan kuylarni yana tinglatib, kuyning nomi yoki uning mualliflari so'raladi va javobga qarab jadvalning musiqaviy xotira degan joyiga bahosi 10 ballgacha baholanadi.

4. musiqaviy tafakkurni aniqlash uchun birorta keng g'oyaviy yuksak badiiy obrazlarni o'zida mujassam etgan kuylarning ijrosini tinglatib yoki shunday qo'shiqlarni so'z boyligi bilan birga tahlil qilib berish so'raladi. Masalan, obrazli musiqalar: "Bahor vals", "Maktabim", "Ustozlar" va boshqa shunga o'hshash so'z va kuyning birgalikda teran keng obrazli ma'no va mazmuni so'raladi. Berilgan topshiriqqa keng obrazli xarakteristika beriladi, olingan javoblardan keyil musiqaviy tafakkur degan joyiga 10 ballgacha bahosi qo'yiladi.

O'quvchilar quyi sinfdanoq musiqa savodiga oid mavzularni oddiy uslublarda o'rgatib boriladi. Birinchi sinflardanoq tovushlar musiqaviy tovushlarning baland pasligi, uzun qisqaligi, tembri va kuchi tushuntiriladi. Tovushqator, oktava, notalar cho'zimi, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, nuqtali notalar, pauzalar haqida ko'rgazmalilik metodi va printsipiga asoslanib tushuntirib boriladi. Masalan, nota cho'zimlarini biror meva ko'rgazmasi bilan tushuntirish ko'zda tutilgan. Notalar nomini esa o'quvchilarni esida qolishi uchun rasmlil ko'rgazmalar orqali yangi pedagogik texnologiyalar orqali qo'llash nazarda tutiladi.

"O'yin" uslubi bilan boshlang'ich sinflarda musiqiy savodxonlikni shakllantirish ko'proq yaxshi natijalarni berish kutiladi. Chunki ushbu mavzu orqali pedagogik amaliyotda 2-sinflar bilan tajriba sinov darsini o'tkazib ko'rdik. "Musiqa savodi o'yini" metodini quyidagicha qo'lladik. 7 ta o'quvchini doskaga chiqarib nota nomlari bilan nomlab chiqdik. Iloji boricha o'quvchilar ichidan ismlari nota tovushqatori nomlanishiga qarab chiqarib qo'yiladi. Masalan:

Do – Dilbar, Dono

Re – Rahim, Ra'no

Mi – Minavvar

Fa – Farhod

Sol – Sarvar, Saodat

Lya – Lola

Si – Siddiq

O'quvchilarni tovushqator bo'ylab iloji boricha zinaga chiqarib qo'yiladi. Bu o'yinda o'quvchilarning tovushlar “nomi” va “past-balandligi”ni esda saqlab qolish maqsad qilib olinadi.

“Alteratsiya o'yini”

Bu o'yinda 5 o'quvchiga alteratsiya belgilari ko'rsatilgan rasmni ushlatib qo'yiladi. Uning orqa tarafiga “belgi”ning vazifasi aniq tushunarli qilib yozib qo'yiladi. Yana 5 o'quvchi doskaga chiqadi va belgisi bor o'quvchi bilan yonma-yon turib notani ya'ni, uni qay ahvolga solishini so'zlab beradi. Bunda 5 o'quvchi nota tovushlari, 5 o'quvchi esa belgilar. Masalan:

- **diez** – mening ismim Diezjon, og'irligim yarim ton gar qo'yilsam sen tomon balandlaysan shu zamon.

b - **bemol** – mening ismim Bemolvoy, pasaytirish vazifam, yaqinlashsam sen tomon. Tushib ketasan shu on yarim ton.

X – **dubl diez** – mening diezning opasi, og'irligim jichchako'p. Notaxonga yaqin borsam 1 ton bo'lar baland xo'p.

bb - **dubl bemol** – men bemolning akasi ko'rinarman kamgina agar nota yaqinlashsa, kaltaklayman ozgina, so'ng tushadi bir tonga.

4 - **Bekar** – men bekorchi huligan. Aka-uka, opa-singillar o'yinin Chiqaraman chippaga. Yaqinlashsam qaltirab notachalar joyiga pismayib o'tib olar.

Shu bilan o'yin yakunlanadi. O'quvchilar baholanadi. Dars mazmunli o'tadi.

Ma'naviyatni shakllantirishda deydi I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida, - bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmay ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va qarovi deb bilgan.

Albatta, ta'lim-tarbiya – ong maxsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda angni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya tizimini davlat va jamiyat nazoratida bo'lmish Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. SHu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishni farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu odiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlarini o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Eng muhim shundaki, “Portlash effekti” ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o’tishi bilan, biz tarbiya qilayotgan sog’lom va barkamol avlodning safimizga tobora ildam kirib borishni bilan yanada yaqqolroq seziladi.

Shunday ekan, har bir tarbiyachi, ustoz o’z ma’suliyatli kasbiga mehr qo’yib, bolalarni sevmog’i kerak.

3.1. Prezident I.A.Karimovning “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarining g’oyaviy mazmuni.

Kitob haqida umumiy ma’lumot

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobi 2011 yil avgust oyida mamalakatimiz mustaqilligining 20 yillik bayrami arafasida nashrdan chiqdi.

Kitobning asosiy qismidan Prezidentimiz Islom Karimovning 1989 yil 24 iyunidan 1992 yilning 4 yanvariga kachar, ya’ni uning respublikamiz raxbari sifatidagi faoliyatining birinchi kunidan to mamlakatimiz istiqloлга erishganidan so’ng umumxalq saylovi asosida mustaqil O’zbekiston Prezidenti etib saylanishi va uz vazifasini bajarishga kirishish sanasigacha bulgan davrda so’zlagan nutqlari, ma’ruzalari, maqola va intervyulari, Yurtboshimiz tomonidan imzolangan farmon va qonunlar o’rin olgan.

Kitobga kiritilgan, biz uchun yaqin tariximizning eng noyob va ishonchli manbaiga aylangan ana shu hujjatlarni o’rganishda kuyidagi mudim jihatga alohida e’tibor qaratish lozim.

Birinchidan, yuqorida zikr etilgan xarakterdagi tarixiy hujjatlarning barchasi kitobga to’liq kiritilmasdan, unda faqat xalqimizning asriy orzusi bulgan **MILLIY** istiqloл mavzusiga oid fikr va karashlar atroflicha uz ifodasini topgan. Boshqacha aytganda, mustaqillik g’oyasi, mustaqillik mavzusi mazkur tuplamga kiritilgan barcha nutq va ma’ruzalarda bamisoli qizil ip bo’lib utadi. SHuning uchun ham u yaxlit asardek katta qiziqish va hayajon bilan o’qiladi.

Ikkinchidan, kitobda yuqorida kayd etib o’tilgan davrda yuz bergan barcha voqea va xodisalarni va muallifning ularga bulgan munosabatini xronologik tarzda, qat’iy ketma-ketlik va izchillikda tula va batafsil yoritish maqsad qilib kuyilmagan.

Asosiy maqsad — sovet davlati hali o'zining hukmronlik kuchini yuqotmagan, uning repressiv siyosati davom etayotgan, „paxta ishi“ degan tuhmat, sun'iy ravishda uylab topilgan siyosiy kampaniya paytida qanchadan-qancha ohamlar nohaq qamalgan, tazyiq va ta'qiblarga uchragan, xalkimiz o'rtasida tushkunlik ertangi kunga ishonchsizlik kayfiyati, kurkuv va vahima keng tarqalgan bir paytda — ana shunday o'ta og'ip, umumiy inqiroz hayotning hamma sohalarini tuliq qamrab olgan taxlikali sharoitda Uzbekiston rahbari sifatida ish boshlagan Islom Karimovning mustaqillikka erishish masalasini kun tartibiga qat'iy qilib qo'yganini aniq tarixiy hujjatlar orqali kursatish, bu yulda qanday ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilgani hakida ukuvchilar, ayniqsa, kechagi tarixni, usha davrdagi zulm va adolatsizlikni o'z ko'zi bilan ko'rmagan yoshlarga ma'lumot yetkazishdan *iborat*.

Uchinchidan, shuni alohida qayd etish lozimki, bu kitob oradan yigirma yil vaqt utganidan keyin moziyga qaytib, usha davr voqealarini qayta eslab, memuar yoki esdalik shaklida yozilgan asar emas. Aksincha, bu kitob aslida o'sha shiddatli tarixiy voqealar sodir bo'lgan davrda, ana shu dolg'ali i va dramatik jarayonlar bilan birga tuzilgan asardir. Unda ozod va mustaqil hayot sari borishda xalqimiz qalbida tug'ilgan barcha savollarga javob bor. SHuning uchun ham u juda katta faktik va analitik materialni uzida mujassam etadigan qomusiy asardir. SHuning uchun to'plamga kiritilgan, kitob holidi birinchi marta nashr qilingan tarixiy xujjatlarning har birida o'sha tahlikali zamonning ruhi, muallifning qalb nidosi yaqqol sezilib turadi. Bu hujjatlar har birining manbasi, tarixiy sanasi aniq ko'rsatilgani, har qaysi tarixiy voqeaga xalqimizning, muallifning munosabatini aniq va ravshan ifoda etishi bilan ham nidoyatda qimmatlidir. Ular o'z davrida sobiq SSSRning katta-katta minbarlaridan ulkan jasorat bilan amalga oshirilgan o'tkir chiqishlar sifatida xalqimizni istiqlol sari da'vat etish, yurtimizda yangicha fikr va qarashlarni, tinch-osoyishta, erkin va farovon hayot asoslarini qaror toptirishdek buyuk maqsadlarga xizmat kalgan bulsa, bugungi kunda yana bir ezgu vazifani ado etishga - yaqin tariximizning hakqoniy manzarasini aks ettirib, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiya- lashga xizmat qilmokda.

Kitobdan joy olgan barcha chiqishlar chukur amaliy va pragmatik ruxi, o'sha davrga xos bo'lgan kommunistik ritorika, balandparvoqlik va safsatabozlikdan mutlaqo xoli ekani bilan aloxida e'tiborni tortadi. Muallif o'zining har bir fikri va so'zini aniq dalil va raqamlar, mantiqiy xulosalar bilan asoslab beradi. Xayotiy faktlar uning o'tkir mulohazalari, ehtirosli kechinmalari, teran mushohadalari, eng muhimi, ma'naviy jasorati bilan mushtarak bo'lib, o'sha paytdagi so'z bilan ifoda etib bulmaydigan o'ta qaltis va murakkab siyosiy-ijtimoiy holatlarni kitobxon tasavvurida butun ziddiyat va karama- karshiligi bilan yaqqol namoyon etadi.

AXOLI SALOMATLIGI, FAN, TA'LIM, MADANIYAT SPORT

JABXALARIGA E'TIBOR

Ilm-fan — saodatga erishish yuli

Prezidentimiz I.A.Karimovning „O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida“ kitobining yana bir muhim ahamiyatli jihati shundaki, unda 80-oxiri, 90-yillar boshlarida O'zbekistondagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy ahvol chuqur tahlil etilib, mavjud muammolar bilan birga bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar mantiqiy izchillikda aks ettirilgan. O'sha murakkab bir davrda respublika rahbari jamiyat hayotiga kompleks yondoshib, boshqa o'tkir masalalar singari sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan, madaniyatning muhim sohasidagi muammolarga ham alohida e'tibor karatgan, ularni samarali hal etish uchun dolzarb G'OYA va fikrlarni o'rta tashlagani uning uzokni ko'ra bilish qobiliyati, bilimi, metindek irodasi va jasurligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, bu davrda oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa hayotiy muhim tovar larning taqchilligi odatiy holga aylanib, aholini ular bilan ta'minlash muammolari keskinlashgan edi. Orol dengizining falokati Koraqalpog'iston janubi uchun borib turgan ekologik kulfat bo'lib, endi Orolni kutqarib qolish uchun zudlik bilan favkulotda chora-tadbirlar ko'rish talab etilardi.

Buning ustiga, viloyatlarda, ayniqsa qishloklarda sog'likni saqlash ishlari o'z xoliga tashlab kuyilgan edi. Bu borada davlatimiz raxbari „Samarqand oblast' ijroiya komitetining kasalxona va poliklinikalar kurulishiga munosabatini odamlar

sixat-salomatligiga sovuqqonlik va mas'uliyatsizlarcha munosabatining yorqin misoli desa bo'ladi. Bu viloyat kasalxona va poliklinikalar bilan ta'minlanish buyicha eng so'nggi urinda turishiga qaramay, oblast raxbarlari ana shu maqsadlar uchun ajratilgan 10 million sum pulning uzlashtirilishini barbod etishdi.

Holbuki, ana shu mablag'lar evaziga 900 bemorga muljallangan kasalxona qurish mumkin edi. Huddi ana shu oblastda bolalar o'limi juda ko'p bo'lishiga qaramay, 1979 yildan buyon xar xil dardga chalingan bolalar davolanadigan kasalxona qurilishi nixoyasiga yetmay koldi.

“Korakalpog'iston ASSR, Toshkent shaxri, Toshkent, Sirdaryo oblastlari va boshqa oblastlardagi ish ham talabga javob bermasligi“ni yurtboshimiz ochiq bayon qiladi.

Shuningdek rahbarimiz bu boradagi vazifalar xususida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi: „E'tiborni ijtimoiy masalalarga qaratish xaqida gapirar ekanmiz, sog'liqni saqlashni yaxshilash birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Bu tarmoq moddiy bazasining nihoyatda qashshoq ekanligi ustida, bizda bu soxa yaxshi tashkil etilmagan va samarali foydalanilmayotir. Millatning zurriyod fondini, xech mubolag'asiz aytish mumkinki, halokatdan saklab qolish uchun keng ko'lamdagi tadbirlarning katta kompleksini amalga oshirish kerak bo'ladi. Muammo allaqachon viloyatlar doirasidan chikib, umumdavlat vazifasi darajasiga ko'tarildi. Ammo bu sohadagi ko'pchilik rahbarlarning tashvishlanayotganliklari uncha sezilmayotir. Xar holda, Sog'likri saqlash vazirligidan ham, xukumatdan ham xozirgacha e'tiborga sazovor bulgan asosli takliflartushayotganiyuq.

80-yillarning o'rtalarida asosiy ijtimoiy-iktisodiy kursatkichlar bo'yicha respublika Ittifoqda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qolgan edi. Aholi jon boshiga milliy daromad O'zbekistonda o'rtacha Ittifoq darajasiga qaraganda ikki barobar kam edi. Yurtimiz aholisining mamlakatdagi boshqa mintaqalarga nisbatan moddiy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlanish darajasidagi farq g'oyat ortib ketgan edi.

Davlatimiz raxbari respublikaga rahbar bo'lib tayinlangan kundanoq aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport ishlariga muhim e'tibor

qaratdi. Chunki, respublikada ijtimoiy infratuzilma tarmoklari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylatirilgan edi. Insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yokda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmayotgan edi.

Yurtimizda ilm-fan rivojiga ham muhim e'tibor qaratildi. Respublikamiz ilm-fani ham boshqa sohalar kabi Markaz manfaati va mafkurasiga hizmat qilar edi. Markazdan bo'lgan tinimsiz tazyiklarga qaramay, 80-yillarning yarmida O'zbekiston ilm-fanida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, oliy o'kuv yurtlari tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilmiy laboratoriyalar o'z faoliyatini takomillashtirishga harakat qila boshladi. Bu davrda tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha jiddiy izlanishlarga qo'l urilayotgan edi. Xususan, 1987 yilda Toshkent viloyatining Parkent tumanida nihoyatda noyob ilmiy-eksperimental majmua „Bizerkal' optika“ — energetika kurilmasi foydalanishga topshirildi.

Ayniksa, astronomiya sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 80-yillar o'rtalaridan boshlab Astronomiya instituti olimlari frantsuz olimlari bilan hamkorlikda Kuyoshning global tebranishini tadqiq etish sohasida keng ko'lamli ishlar olib bordilar. Kuyosh faoliyatini tekshirish sohasida Yu.Solonim, I. Sattorov, Z.Korobova, SH.Egamberdiev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

1986 yilda esa yuksak energiyali astrofizika bo'limi tashkil kilindi, unda gamma-astronomiya sohasida tadqiqotlar o'tkazish ishlari boshlab yuborildi. SHuningdeq biologiya, kibernetika, yadrofizika, kimyo va meditsina fanlari sohasida ham bir kator muhim va dolzarb muammolar ustida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Islom Karimov respublika raxbari bo'lib faoliyat boshlashi bilan falsafa, tarix, ayniqsa, Vatan tarixini o'rganish, uning uslubiyatiga, „oq dog'lari“ga doir masalalar faol muhokama etila boshlandi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda jamiyat va shaxs masalalari, madaniy meros, til muammolari kabi masalalarga intilish yuzaga keldi.

Bu masalalarga bag'ishlangan ilmiy, ayniqsa, publitsistik maqolalar gazeta va jurnallar sahifalarida muntazam bosilib turdi. Biroq, kommunistik mafkura yakka hokimligi sharoitida mazkur masalalarni xal etish mumkin emasdi. Mustabid tuzum milliy o'zlikni anglash jarayoniga tish tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatar, jamiyatdagi mavjud ziddiyatlar, nuqsonlar illatlar aslida mustabid sovet tuzumi, kommunistik mafkura yakkahokimligi tufayli yuzaga kelayotganini yashirishga, niqoblashga urinar edi. Ilm fandagi bunday vaziyatni ko'ra olgan Yurtboshimiz dastlabki oylardayoq rivojiga va uning xalkimiz, yurtimiz manfaatlari uchun hizmat qilishiga e'tibor qaratdi. 1989 yil 28 noyabrda Uzbekiston Fanlar akademiyasida utgan uchrashuvda suzlagan nuqida I.A.Karimov ilm-fanni yuksaltirish a mavjud muammo va vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Unda fan sohasidagi kadrlarni jadal yetishtirish va yoshartirish uchun, intellektual imkoniyatlarni keskin darajada oshirish uchun respublika radbariyati zarur mablag'larni jumladan, valyuta mablag'larini ajratishga, tegishli tashkiliy masalalarni hal qilishga tayyor ekani ta'kidlandi.

Bu borada respublika rahbariyati tomonidan 1990 yildan boshlab mamlakat va ellardagi katta ilmiy markazlar doktoranturalaridan va stajirovka o'tash yosh olimlarimizga yuzta urin ajratish masalasini SSSR Fan va texnika komiteti oldiga kuyilishi ulkan amaliy tadbirlarning debochasi edi. Mazkur taklifda biotexnologiya, molekulyar genetika, robototexnika sistemasi, mashinasozlik texnologiyalari, demografiya iqtisodiyoti kabi sohalarda, fan texnika tarakkiyotining boshqa asosiy yunalishlarida ilmiy kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish masalasi ham ilgari surilgan edi. Unda ilm-fan yutuklarini amaliyotga tatbiq etish, qolaversa olimlar faoliyatini respublika ho'jaligi taraqqiyoti uchun ustuvor bo'lgan sohalarga yunaltirish belgilab berildi. Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun oliy maktabning, hatto, umumta'lim maktablarining faoliyati takomillashtirilishi rejalashtirildi. Ushbu rejalarni muvaffakdyatli amalga oshirish uchun kuyidagi vazifalar belgilandi:

- iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, qo'llab-quvvatlash hamda ularning qobiliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;

- maxsus respublika fondini tashkil etish hamda iqtidorli bolalar uchun maktablar va internatlar tarmog'ini vujudga keltirish, yosh olimlar uchun turli mukofotlar ta'sis etish;
- fanni mablag' bilan ta'minlash muammolarini ham puxta ishlab chikish, yangi institutlar tashkil etish, mavjud institutlarni o'zgartirish;
- suv muammolari va atrof-muhitni muhofaza qilish instituti va boshqa bir qancha institutlarni tuzish;
- respublikada uzog'i bilan 2010 yilgacha ilmiy siyosat kontsepsiyasini hamda O'zbekistonda fan va texnikani rivojlantirishning tegishli dasturini ishlab chiqish.

3.2. Prezident I.Karimovning 2010 yil 27 yanvarda Vazirlar Mahkamasida "Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" mavzusida so'zlagan nutqidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar va xulosalar.

O'zbekiston rahbari jamiyat taraqqiyotida olimlarning o'rni masalasiga tuxtalib o'tar ekan,"Hozir har bir olim, ayniqsa, jamiyatshunos olim o'z ilmiy faolitini respublika muammolariga, o'z xalqi va butun mamlakatimiz takdiriga muvofiqlashtirishi lozim. Ravshanki, bunday intilish jamiyatshunos olimlar ilmiy va ijtimoiy faoliyatining birligi xarakterini, ularning respublika ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokini belgilab berishi kerak", deb ta'kidlash bilan birga, ilmiy xodimlar uz fikrlarini erkin, mas'uliyat bilan ifoda etishlari uchun sharoit yaratish, ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish. ilmiy tadkdkrtlarni bajarish uchun davlat buyurtmalarining tanlov sistemasi-ni shakllantirishni ham bayon etdi.

80-yillarning oxirida O'zbekiston jamiyatida mavjud muammo va qiyinchiliklarga tanqidiy baho berish, amaliy taklif va harakatlarga yangi kuch-kudrat bag'ishlashga imkon beradigan o'zlikni anglash omilini shakllantirish va uning muhim amal qilishi G'oyat zarurligi sezilib turardi.

Qisqa muddatda I.A.Karimov tashabbusi bilan kup millatli respublikamizda millatlararo munosabatlarni mustadkamlash masalasi eng dolzarb va utkir muam-molardan biri sifatida kun tartibiga kuyilib, bu borada ham bir kdtor reja sh tadbirlar ishlab chshdisha e'tibor kdratildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda milliy uzlikni anglash jarayoni nidoyali keskin ravishda kuchayib borayotgan edi. Lekin ana shu jarayon bilan bir vaktla salbiy dodisalar ham yuz bermokda edi. Ana shunday jarayonda milliy uzliknj anglashda buzilishlarga olib kelayotgan sabablarni, omillarni anikdab, ana sht jarayonlarga ijobiy ta'sir utkazish yullarini belgilash, milliylik va bayna.,- milallik uygun bulishiga erishish kerak edi.

Bu borada 'rezidentimiz uz fikrini bayon etar ekan, biz tarixiy xalq an'analari, urf-odatlar va marosimlari asosida ohamlar ongini shakllantnrm omillarini kuchaytirishimiz zarur', deb qayd etadi.

Yurtboshimizning ziyolilarimizga bulgan ishonchi „O'zbekiston mustakdlilik- ka erishish ostonasida“ kitobidagi quyidagi so'zlarda o'z ifodasini to'gan: „Shuni mubolagasiz aytish mumkinki, xalqni ma'naviy jidatdan soglomlashtirish sohasidagi katta ishda ziyolilarimiz asosiy, hal etuvchi o'rinni egallashlari, ziyolilarning so'zi ohanglarning ongu shuuri va qalbida hamisha aks-sado beradi.

Bugungi murakkab, ziddiyatli, turli larzalar chiqib turgan va mojarolar bu turgan vaziyatda ziyolilarimizning oqilona so'zlari, xayrli ishlari odamlar va xalqlar o'rtasida iison'arvarlik va ma'naviy normalarni saqlab qolishda eng muhim shartdir.

Res'ublika Fanlar akademiyasi olimlaridan umidimiz katta. Buning boisi albatta, Res'ublikamizni inqirozdan chiqarishning yagona demaganda ham, asosiy yuli ilm-fanning madadiga tayanishdadir. Fan-texnika taraqqiyotiga, yangi va kashfiyotlarga suyanishdadir.

Olimlarimizni tanqid qilish ham mumkin edi, bunday tanqid, hatto, an'anaga ham aylanib ketgan edi. Lekin men ularni qullab-quvvatlamochiman. Chunki, imonim komilki, res'ublikamizda anchagina yetuk olimlar bor, konkret ishlar

qilingan, olimlarimiz xalq oldidagi mas'uliyatini ham tushunib turibdilar. bo'lib o'tgan uchrashuvlar chog'ida ham bunga ishonch hosil qildim.

G'ayrat-shijoat va ijodkorlik ko'roq bulsa deymiz. Yosh olimlarga yordam beraylik. SHunday qilsak, O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida durust natijalarga erishamiz. Biz bu borada yordamni bunday buyon ham hech ayamaymiz“

Prezident I.A.Karimov jamiyatshunoslik fani va jamiyatshunos olimlar faoliyatiga baho berib, bu borada kuyidagi vazifalar turganini belgilab beradi. “Biz jamiyatshunoslikning rolga yangicha nazar solishimiz zarur. Uzoq vaqtdan buyon jamiyatshunoslik fani sotsializm tugrisidagi dogmatik tasavvurlar xizmatida bo'ldi, siyosat mafkuraning izidan bordi. Mamlakat va res'ublikamizda sodir bo'layotgan jarayonlarni teran ilmiy idrok etish zarur.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni taraqqiyotining intellektual qadriyatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga yetkazadilar. Zero, huquqiy demokratik davvlat va fuqorolik jamiyatini qurish sharoitida yangicha ahamiyatga ega. SHu o'rinda yoshlarning ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashida milliy musiqamizning roli alohida ahamiyatga ega. CHunki, aynin yoshlarimizning milliy musiqamizning roli alohida ahamiyatga egae chunki aynan yoshlarimizning milliy mmentalitetimizga xos bo'lagh qadryatlarni saqlab qolishda milliy musiqa san'atining ham o'z o'rni bor. Ma'lumki, milliy musiqa san'atimiz yoshlar o'rtasida samimiyatni, o'zaro mehr – oqibatni yanada o'stirishga xizmat qiladi. Musiqiy ta'limning mazmun va mohiyatini zaminida barkamol avlod komil inson tarbiyasi yotadi.

Musitaqillik yillarida mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish, farzandlarimiz musiqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qator dasturva rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan mumtoz merosimizni asrab – avaylash va uni o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish hamda yoshlarimizni ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan “Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-taxnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 200-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora – tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Res'ublikasi

‘rezidentining farmoiyshi’ musiqa rivojiga yanada hissa bo’lib qo’shiladi. Ushbu farmoyish nafaqat musiqa va san’at maktablarini balki, umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslariga bo’lgan e’tiyoborini ham kuchaytirishga olib keladi.

Musiqa dars beruvchi ‘edagoglarning hozirgi kundagi asosiy vazifasi haqida fikr yuritar ekanmiz, ‘rezident I.A. Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida aloxida ta’kidlaydi: agar insonning qulog’i yengil – yel’i, tumtaroq ohanglarga o’rganib qolsa, boora –bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati ‘asayib ketishi, uning ma’naviy olimini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gar emas. Oxir oqibatda bunday odam “SHashmaqom” singari milliy merosiimzning noyob durdonalri ham Motsart, Betxovn va CHaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kom’ozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo’ladi. Musiqiy ta’limning yanada rivojlantirish masalalari o’ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O’qituvchi muallimning shaxsiy ijtimoiy sifatlari har bir zamon ta’labidan kelib chiqqan holda ‘edagogga qo’yiladigan talablar borgan sayin takomillashib, murakkablashib boraveradi.

Uzluksiz musiqiy ta’lim jarayonini amalga oshirishda ‘edagoglarning ijtimoiy sifatlari qanday bo’lishi kerak degan savolning qo’yilishi tabiiy, albatta.

Bunda biz birinchi navbbatda ajdodlarimizning fikr – mulohazalarini hisobga olishimiz shart.

Xususan, qadimiy turk yerizada Xorazmda vujudga kelgan zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” da shunday deyilgan: Muallim koxinlarining burchlari bilimli, yaxshi bilan yomonni ajratib oladigan qilib tarbiyalash va to’g’ri yo’lga hidoyat etishdir. “Noshud, yomon muallim o’qituvchi qalbidan hunarmandchilikni yo’qotar ekan, ey yazdan, yomon ustozdan o’zing asra” – deb yozilgan.

Musiqa ijodkorligi faoliyati umumiy o’rta ta’lim o’quv dasturiga ilk bori kiritilmoqda. Bu faoliyat umumiy o’rta ta’lim o’quvchilarida musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o’tira bilish uchun katta ahamiyatga egadir. Bu faoliyat o’qituvchi ijrosiga “dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlar (xususan raqs) to’ish, she’r ‘archasiga kuy “bastalash” kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan

bajariladi. Musiqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'roq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq. o'quv dasturida tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasidan ortiq berilgan. Bu o'qituvchiga asarni sinf imkoniyatlari va o'quv yilining muhim sanalariga muvofiq tarzda tanlash o'qitish imkonini beradi. Ayni 'aytda, dastur o'qituvchiga dasturga kiritilmagan, ammo badiiy baksak tarbiyaviy jihatdan muhim, bolalar ijodiyotiga yo'l beradigan va o'quvchilar idrok amaliyotiga mos bo'lgan yangi asarlardan keng foydalanish huquqini ham beradi.

Unda chorak mavzulariga moslab asaralarni deyarli ikki hissa miqdorda tanlash va lozim bo'lgan dasturdan tashqari asarlardan ham foydalanish mumkin.

Nota savodi, cholg'uchilik, raqs harakatlar, shuningdek musiqa ijodkorligi faoliyati mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ulani almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rivojlantirishda va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondoshishini taqozo etadi. Bunda shu narsaga e'tiborni kuchaytirmoq lozimki, garchi asarda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida – alohida ko'rsatilgan bo'lsada, ammo darslarni rejalashtirishda va ularni o'tishda musiqa faoliyatlari dars mazmunidan kelib chiqish va uning mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi. SHunday qilib, darsda musiqa faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi.

Aytilgan muammolar, fikrlar mulohazalar quyidagi takliflarni tavsiya qilish mumkin.

Musiqa o'qituvchisi darslar davomida ijodkor, izlanuvchan va iste'dodli bolalarani nazorat ostiga olishi kerak.

Iste'dodli bolalarning kelajakda musiqiy qobiliyatlarini yanada kamol to'tirish uchun ularning ota – onalari bilan o'zaro aloqada bo'lish zarur.

Darsda bolalar ijodi va ijrochiligiga turtki beradigan ko'rgazmalar va ashyolarda ko'roq foydalanish lozim.

Ijodkor va izlanuvchin bolalarni musiqa to'garaklariga jalb etish hamda ular uchun alohida maxsus dastur va reja tayyorlash kerak.

Bolalar o'z sinfdagilarga dirijyorlik qiladimi, biror she'riy 'archaga yangi raqs yaratadimi, biror ohanga mos o'zi she'r to'qiydimi, biror yakkaxon yoki ansamblning chiqishini fonagramma qiladimi bularning bari bolalarning ijodi. Bu bolalardan kontsert dasturida, maktabda o'tkaziladigan ajoyib tadbirlarda chiqishlar tashkil etib yaxshi samaralarga erishish mumkin.

Zero, yosh avlodda san'atga nisbatan iste'molchilik munosabati tashkillanishiga bir yoqlama bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun musiqa o'qituvchisi bolalarda badiiy jihatdan qimmatli asarlarga va musiqa san'atiga qiziqishini tarbiyalashga faol qo'shilmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. O'zbeiston mustaqillikka erishish ostonasida. O'zbekiston. 2012 yil. 1-15 bet. 106-113 bet.

2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". Toshkent. "Ma'naviyat". 2008 yil 23-78 bet.

3. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'o'llari va choralari. O'zbekiston, 2009-56 bet

4. "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 – 2014

yillarda mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora – tadbirlari to'g'risida” gi o'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. Toshkent.

5.Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Musiqa 6-maxsus son. Toshkent “SHarq” 1999 yil.

6.“Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi” Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. Toshkent 2009 yil

7.“Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida musiqa darslarini sifat va samaradorligini oshirish” Mintaqaviy ilmiy – nazariy anjumani materiallari. Namangan 2007 yil

8.Mualliflar jamoasi. Estetik tarbiya asoslari Toshkent. “O'qituvchi” 1988 yil.

9.“Xalq ta'lim” jurnalining 2003-2007 yil sonlari.

10.“Uzluksiz ta'lim” jurnalining 2004-2005 yil sonlari

11.O.Fayziea “Maktabda musiqa” Toshkent 1991 yil.

12.Safo Ochil Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari Toshkent 1995 yil

13.Mualliflar jamoasi. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. Toshkent 1996 yil

14.J.Fozilov va boshqalar. O'qituvchi ma'naviyatini tarbiyalash. Toshkent 2000 yil

15.B.Norboev. istiqlo va istiqbol tarbiyasi. Toshkent.1996 y

16.T.Mazxmudov. estetik did haqida. Toshkent 1964 yil

17.Kollektiv. Esteticheskoe vospitanie v shkole. Toshkent 1991

18.O.Musurmonova. o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. Toshkent 1993 yil

19.G. SHaripova. Musiqa o'qitish metodikasi. Toshkent. 2009 yil

20.O.Bo'riev. Ma'naviyat gultoji. Toshkent. 1997 yil